SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING UMUMMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Usmonova Mohichexra Anvarjon qizi
mohichehrausmonova18@gmail.com

Annotatsiya:Mazkur maqolada sinergetik yondashuv asosida o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Umummadaniy kompetensiyaning o'quvchi shaxsining bilim, qadriyat, munosabat va tajribasi o'zaro ta'siri asosida rivojlanishi hamda sinergetik yondashuvning ushbu jarayonni yaxlit pedagogik tizim sifatida tushuntirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sinergetik yondashuv, umummadaniy kompetensiya, pedagogik jarayon, o'z-o'zini tashkil etish, pedagogik muhit, shaxs rivojlanishi.

Bugungi kunda ta'limning mazmuni faqat o'quvchiga muayyan bilimlarni berish bilan chegaralanmay, uning shaxsiy, ijtimoiy, axloqiy va madaniy jihatdan rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish pedagogikaning muhim nazariy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonida maktabgacha va maktab ta'limi tizimida o'quv va tarbiya jarayonlarining uzviyligini ta'minlash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Umummadaniy kompetensiya shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, ularga nisbatan ongli munosabat bildirish, turli ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda o'zini munosib tutish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va madaniy tajribani shaxsiy hayoti hamda faoliyatida namoyon eta olish imkoniyatini ifodalaydi. Shu sababli mazkur kompetensiyani faqat ma'lum bilim yoki ko'nikmalar yig'indisi sifatida talqin qilish uning pedagogik mohiyatini to'liq ochib bermaydi. U bilim, qadriyat, munosabat, tajriba, faoliyat va refleksiyaning o'zaro aloqasi natijasida shakllanadigan yaxlit shaxsiy sifat sifatida qaralishi lozim.

Sinergetik yondashuv ta'lim faoliyatida o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi tashkil etish, boshqarish ustunligiga asoslanadi va o'z-o'zini ochib berish va takomillashtirish, o'z-o'zini anglash maqsadida mavzuga ta'sirni rag'batlanish yoki rag'batlantirishdan iborat. Sinergetika muammosiga aniqlik kiritish bo'yicha ilmiy izlanishlar XX asrning ikkinchi choragida boshlanib, bugungi kunda ham fanning barcha sohalaridagi ahamiyati tobora ortib bormoqda

G.M.Kojaspirova "Sinergetika" tushunchasi "ta'lim" tushunchasiga juda yaqin (yunon tilidan tarjima qilinganda "birgalikdagi harakat", "hamkorlik" degan ma'noni anglatadi) deb ta'riflaydi.

K.T.Suyarov va E.K.Quvondiqovlar esa o'z maqolalarida yopiq va ochiq (sinergetik) ta'lim tizimlari xususiyatlarini taqqoslash asnosida sinergetik yondashuvni "Sinergetika murakkab tashkil topgan ochiq tizimlarda o'z-o'zini tashkil qiluvchi hodisalarni o'rganayotgan boshqa bilim sohalariga ham tegishli bo'lgan universal metodologik paradigmaga kiradi" deya izohlaydilar.

Bizningcha, sinergetik yondashuv pedagogik jarayonning har bir subyektini (ota-ona, talaba, o'qituvchi) rivojlanishdan o'z-o'zini rivojlantirishga o'tishni amalga oshiradigan o'zini o'zi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

rivojlanayotgan kichik tizimlar sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Shuning uchun ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri, davlat ijtimoiy siyosatining bir qismi bo‘lishi kerak. Shu jihatdan qaralganda, sinergetik yondashuv umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishning alohida bir metodi emas, balki mazkur jarayonning ichki tabiatini tushuntiruvchi nazariy-metodologik yondashuv sifatida ahamiyatlidir. Chunki o‘quvchining umummadaniy kompetensiyasi tayyor shaklda berilmaydi. U turli madaniy tajribalarni o‘zlashtirish, ularni shaxsiy tajribasi bilan taqqoslash, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, qadriyatlarni anglash, o‘z faoliyatini baholash va zarur hollarda mavjud qarashlarini qayta ko‘rib chiqish jarayonida rivojlanadi. Demak, kompetensiyaning shakllanishida tashqi pedagogik ta’sir bilan bir qatorda o‘quvchining ichki faolligi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari ham muhim o‘rin egallaydi.

Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi kattalarga hurmat, do‘stlik, halollik, tabiatga ehtiyotkor munosabat kabi qadriyatlar haqida bilimga ega bo‘lishi mumkin. Biroq ushbu bilimning umummadaniy kompetensiyaning tarkibiy qismiga aylanishi uning real munosabatlari, xatti-harakatlari va shaxsiy tajribasi bilan bog‘liq holda yuz beradi. Ya’ni bilimning mavjudligi o‘z-o‘zidan kompetensiyani ta’minlamaydi; bilimning qadriyat va faoliyat bilan uyg‘unlashuvi natijasida yangi sifat yuzaga keladi.Shu ma’noda umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini sinergetik nuqtayi nazardan quyidagi yaxlit bog‘liqlik asosida tushuntirish mumkin: o‘quvchining mavjud madaniy tajribasi pedagogik ta’sir, ijtimoiy o‘zaro munosabatlar va shaxsiy faollik bilan to‘qnashadi, boyiydi va qayta tashkil topadi. Natijada o‘quvchining madaniy hodisalarga munosabati, muloqot uslubi, xulq-atvori va qadriyatlarni anglash darajasida yangi sifatlar shakllanadi. Bunda rivojlanish har doim ham bir xil sur’atda kechmaydi. Ayrim vaziyatlarda o‘quvchida ma’lum bir qadriyat yoki madaniy xulqning shakllanishi uzoq vaqt davomida sezilmasligi, keyinchalik esa muayyan tajriba yoki ijtimoiy ta’sir natijasida keskin namoyon bo‘lishi mumkin.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1-rasm.Sinergetik yondashuv asosida umummadaniy kompetensiyaning rivojlanish modeli.

Xulosa qilib aytganda, sinergetik yondashuv o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish masalasini zamonaviy pedagogikaning shaxsga yo'naltirilgan, tizimli va rivojlantiruvchi tamoyillari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv asosida umummadaniy kompetensiya o'quvchiga tayyor holda beriladigan sifat emas, balki uning madaniy tajribasi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari, shaxsiy faolligi va refleksiyasi o'zaro ta'sirga kirishishi natijasida vujudga keladigan yangi sifat sifatida qaraladi. Mazkur nazariy talqin pedagogik jarayonni murakkab, ochiq va dinamik tizim sifatida tushunishni, o'quvchining subyektiv faolligini e'tirof etishni hamda uning umummadaniy rivojlanishini turli pedagogik va ijtimoiy-madaniy omillarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq holda tadqiq etishni taqozo etadi. Shu jihatdan sinergetik yondashuv o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi istiqbolli ilmiy yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkiletish to'g'risidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-79 sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6476175
2. Abdullayeva M va boshqalar. Falsafa qisqacha izohli lug'at. T-2004. "Sharq". 284-285 b.
3. Alimova S. "Ta'lim- tarbiya jarayonida ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish". Journal of innovatsions in social sciences. Volume:02Issue:04/2022.66-70 https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7511
4. Suyarov K.T., Quvondiqov E.K. "Sinergetik yondashuv asosida o'qituvchining kasbiy faoliyatini rivojlantirish". Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. CSPI Conference 2021. 376-379 b. https://cyberleninka.ru/article/n/sinergetik-yondashuv-aosida-ituvchining-kasbiy-faoliyatini-rivozhlantirish
5. https://cyberleninka.ru/article/n/
6. www.sciencebox.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.